AFFILIATSIYA MOTIVI MUAMMOSINING ILMIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI

M.X.Saidova[1]

1. Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti

Mas'ul muallif: Saidova Maftuna Xakim qizi, Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti.

Received: 04 Noyabr 2026
Accepted: 09 Noyabr 2026
Published: 14 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Saidova, M. X. AFFILIATSIYA MOTIVI MUAMMOSINING ILMIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI / M. X. Saidova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 395–397.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o‘smirlarning affiliatsiya motivatsiyasi, sotsial intellekti va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro korrellyatsion bog‘liqliklar o‘rganilgan. Shuningdek, o‘smirlarda qabul qilinishga intilish va rad etilishdan qo‘rqish motivlarini rivojlantirishga qaratilgan korporativ psixologik trening dasturining samaradorligi eksperimental jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O‘smirlik davri, affiliatsiya motivi, qabul qilinishga intilish, rad etilishdan qo‘rqish, sotsial intellekt, shaxslilik xususiyatlari, korporativ trening.

ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ МОТИВА АФФИЛИАЦИИ В НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ педагогических и психологических детерминант формирования мотива аффилиации у подростков. В ходе исследования изучены взаимосвязи между мотивацией аффилиации, социальным интеллектом и личностными особенностями подростков. Кроме того, экспериментально обоснована эффективность программы корпоративного психологического тренинга, направленной на развитие у подростков мотивов стремления к принятию и страха отвержения.

Ключевые слова: подростковый возраст, мотив аффилиации, стремление к принятию, страх отвержения, социальный интеллект, личностные особенности, корпоративный тренинг..

THE COVERAGE OF THE AFFILIATION MOTIVE PROBLEM IN SCIENTIFIC LITERATURE

Abstract. This article provides a scientific analysis of the pedagogical and psychological determinants involved in developing the affiliation motive among adolescents. The study examines the correlations between adolescents' affiliation motivation, social intelligence, and personality traits. Furthermore, the effectiveness of a corporate psychological training program aimed at developing adolescents' motivation to seek acceptance and their fear of rejection is experimentally substantiated.

Keywords: adolescence, affiliation motive, need for acceptance, fear of rejection, social intelligence, personality traits, corporate psychological training..

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar jadallashib borayotgan davrda shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi hamda atrofdagilar bilan samarali munosabatlar o‘rnatishi muhim psixologik-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot qilish, ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilinish, o‘zaro yaqinlik va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Mazkur ehtiyojlar shaxsning affiliatsiya motivi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi, shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy moslashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Affiliatsiya motivi psixologiyada shaxsning boshqa insonlar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish, muloqotga kirishish, muayyan ijtimoiy guruhga mansublikni his qilish va atrofdagilar tomonidan qabul qilinishga bo‘lgan ichki intilishi sifatida talqin etiladi. Ushbu motivning shakllanishi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy tarbiya muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan affiliatsiya motivini faqat muloqotga bo‘lgan ehtiyoj sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi murakkab motivatsion-psixologik mexanizm sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘smirlik davrida affiliatsiya motivining mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu davrda mustaqillikka intilish, o‘zligini anglash, tengdoshlar orasida mavqega ega bo‘lish va ijtimoiy e’tirofga erishish ehtiyoji ortadi. Natijada o‘smir xulq-atvorida ikki muhim motivatsion yo‘nalish — boshqalar tomonidan qabul qilinishga intilish hamda rad etilishdan qo‘rqish holatlari namoyon bo‘ladi. Ushbu motivlarning o‘zaro nisbati o‘smirning muloqot strategiyasi, ijtimoiy faolligi, o‘ziga bo‘lgan munosabati va shaxslararo munosabatlar sifatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammoni ilmiy jihatdan o‘rganishda affiliatsiya motivining nazariy

asoslari, uning tarkibiy komponentlari, shakllanish mexanizmlari va yosh davrlariga xos namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Xususan, sotsial intellekt, empatiya, kommunikativ qobiliyatlar, o‘zini o‘zi baholash va shaxslilik xususiyatlarining affiliatsiya motivatsiyasi bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlash ushbu jarayonning psixologik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, o‘smirlarda affiliatsiya motivini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ta’sir vositalarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda guruhiy psixologik treninglar, kommunikativ mashqlar, hamkorlikka asoslangan faoliyat va refleksiv topshiriqlar o‘smirlarda ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda rad etilish bilan bog‘liq xavotirlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, «Affiliatsiya motivi muammosining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi» mavzusini tadqiq etish affiliatsiya motivining nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish, uning pedagogik-psixologik determinantlarini aniqlash hamda o‘smirlarda mazkur motivni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Respublikamizda rivojlanayotgan islohotlar jarayonida har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni jamiyat va yurt ravnaqi uchun kerakli kadrlar qilib kamol toptirish muhim vazifalardan biridir. Ayni paytda bugungi yosh avlodni shaxslararo munosabatga o‘rgatish, kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iborat bo‘lgan affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan affiliatsiya motivatsiyasi o‘quvchilarni o‘quv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga o‘tishga undaydi, jamoada shaxslararo munosabatlarni yaxshilab, shaxsiy-ijobiy kamolotini ta'minlaydi.

Affiliatsiya motivi va uni shaxs takkomillashuvida muhim omil ekanligini belgilaydigan g‘oyalar zardushtiylikning qadimgi manbai «Avesto», sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbiri manzil», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarlarida ilgari surilgan. Shuningdek, qadimgi yunon faylasuflaridan Aristotel, Geraklit, Demokrit, Lukretsiy, Platon, Sokrat asarlarida ham ushbu muammo g‘oyalar markazida bo‘lgan. Ular motivatsiyani “muhtojlik” termini bilan atab, “muhtojlik” ni hayot o‘qituvchisi sifatida e'tirof etishgan. Tahlillar ko‘rsatadiki, affiliatsiya motivi hamma davrlarda ham shaxs rivojlanishi va takomillashuvi uchun muhim omillardan biri sanalgan.[1,2,3]

Bugungi kunda psixologiya olamida motivatsiya, affiliatsiya muammosi, uning tabiatiga oid ko‘plab nazariyalar mavjudligini ta'kidlab o‘tish lozim. Mavzuga doir izlanishlar Sh.Baratov, A.Fayzullayev, A.Jabborov, V.Karimova, Z.Nishonova, N.T.Norqulova B.Qodirov, N.Safayev, V.Tokareva, B.Umarov, E.G‘oziyev, G‘.Shoumarov, O.E.Xayitov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Tahlil natjalari shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqoridagi tadqiqotlar predmetlari doirasida muayyan xulosalarga kelingan bo‘lsada, affiliatsiya motivining bevosita o‘smirlar ijtimoiy xulqiga ta‘sir ko‘rsatishining pedagogik-psixologik omillari kompleks tarzda o‘rganilmagan.[8,9]

Xorij olimlaridan J.W.Allport, J.Atkinson, J.Born, B.Bunk, W.Daugall, D.Feydimen, Z.Freyd, E.Fromm, R.Kettell, D.Makklelland, D.Mayers, A.Maslou, A.Megrabyan, G.Myurrey, J.M.Nuftin, R.Uotson, X.Xekxauzen, motivatsiya, xususan, affiliatsiya motivi muammosi bilan shug‘ullanib kelishgan. [1.3.5]

Hamdo‘stlik mamlakatlari olimlaridan S.V.Allaxvardova, Abulxanov-Slavskaya, B.G.Ananev, V.G.Aseyev, B.S.Ilin, L.G.Kovalev, I.V.Kuznetsova, A.N.Leontev, M.Sh.Magomed-Eminov, M.V.Matyuxina, A.K.Markova, R.S.Nemov, A.B.Orlov, Yu.M.Orlov, L.I.Petrajitskiy, S.L.Rubinshteyn, T.S.Stefanenkolar ushbu fenomenga aloqador psixologik xususiyatlarni o‘z tadqiqot ishlarida o’rganishgan. [2.4.6]

Affiliatsiyaga yo‘nalganlik tushunchasi ilk marotaba A.Megrabyan va S.Kshesinskiylar tomonidan ijtimoiy psixologiyaga kiritilgan.

A.Megrabyan o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarida affiliatsiya motivining to‘rtta turga ajratadi:

1. Affiliatsiyaga ishonch yuqoriligi, rad etilishga nisbatan past sezgirlik ko‘p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondiradi. Bu vaziyatda odam o‘ta muloqotmand bo‘lib qolishi mumkin.

2. Affiliatsiya ehtiyojining pastligi, rad etilishga nisbatan yuqori sezgirlik, ko‘p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondirmaydi yoki umuman rad etiladi.

3. Affiliatsiyaga nisbatan past intilish va rad etilishga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi – ko‘p hollarda xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlovchi yo ijobiy yo salbiy affiliatsiyaga sabab bo‘ladi va odam bunday holatlarda yolg‘izlikni afzal ko‘rib qoladi.

4. Affiliatsiyaga ishonch va rad etilishga nisbatan sezgirlikni yuqoriligi: ko‘p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyoj yo qondiriladi, yo rad etiladi. Insonda kuchli ichki ziddiyat paydo bo‘ladi: u muloqotga intiladi, lekin shuning bilan birgalikda uni chetlab o‘tishga harakat qiladi. Ushbu tip, Megrabyan fikricha, yaqqol namoyon bo‘luvchi komform xulq-atvorning motivatsion asosidir, ya'ni ijobiy va salbiy sanktsiyalarni tez-tez qo‘llab turish, individda bog‘lanish (qaramlik) tendentsiyasini shakllantirish usuliga aylanadi.

R.S.Nemov, ijtimoiy xulq-atvor motivlaridan biri affiliatsiya motivi ekanligini ta'kidlab, uning asosida adekvat munosabatlar o‘rnatish, saqlab qolish va mustahkamlash kabi motiv yoki ehtiyojlar yotishini aytib o‘tadi. [1].

Affiliatsiya motivi yaxshi rivojlangan insonlar odamlar bilan aloqa o‘rnatishda, muloqot jarayonida, bu bevosita (yuzma-yuz) yoki bilvosita (aloqaning turli xil usullari: telefon, pochta, internet va bosh. yordamida) bo‘lishidan qat'iy nazar, yuqori ijtimoiy faollikni va tashabbuskorlikni namoyon etishadi. Aynan ular turli majlislar, uchrashuvlar, kechalar, dam olish kechalarining, klub va boshqalarning faol ishtirokchilariga aylanadi. Affiliatsiya motivi kuchli rivojlangan insonlar o‘zlariga muloqatda o‘ta kirishuvchanlik, tez til topishishni, do‘stona hamkor tanlashni afzal ko‘rishadi.

Kuzatuvlarga ko‘ra, affiliatsiya motivining yuqori ko‘rsatkichlariga ega insonlar yolg‘iz mehnat qilgandan ko‘ra, do‘stlar bilan o‘zaro munosabatlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan guruhda yuqoriroq ko‘rsatkichlarni namoyon etadilar. Shunga yarasha, binobarin, bunday insonlar do‘stlik kabi munosabatlar doirasini qadrlaydilar.

N.D.Tvorogova tadqiqotlarida affiliatsiya motivi (shaxsiy muloqotga bo‘lgan ehtiyoj sifatida tushunilgan) talabalarni yuqori bosqichga o‘tgan sari pasayib ketishi (51% dan 35% gacha), muvaffaqiyatga erishuv motivi esa 7% dan 29% gacha oshishi, liderlikka intilish esa 4% dan 33% gacha oshib borishi kuzatilgan[2].

S.S.Yurkovskaya tadqiqotlarida affiliatsiya motivini o‘quv faoliyatidagi ahamiyatlilik darajasi o‘rganilgan. Shuningdek, o‘quv jarayoning muvaffaqiyatli kechishi o‘qituvchi va talabalarda affiliatsiya motivining shakllanganlik darajasi bilan belgilanishi asoslab berilgan. [3].

V.M.Myasisev (1893-1973) affiliatsiya motivini shaxs munosabatlari doirasida talqin qilishga erishadi. [4]. Uning fikricha, motiv, shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi va harakat ob'ektiga nisbatan munosabatning ifodalanishidan boshqa narsa emas.

P.M.Yakobson (1902-1979) o‘z ilmiy tadqiqotlarida afillatsiya motivi muammosining rus psixologiyasida va xorijda o‘rganilishi, undagi turli qarashlarga oid mulohazalarni tahlil qiladi. U o‘quv va mehnat faoliyati motivlarining shakllanganligi shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. . [5].

A.A.Uxtomskiy (1875-1945) o‘z asarlarida motivlar masalasiga e'tibor berib, muammoni fiziologik, psixologik jabhalaridan turib tahlil qiladi. Muallif motivni insonning zo‘r berishi natijasida shakllanuvchi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin etadi va hayot jarayonida o‘zgaruvchanligini ta'kidlab o‘tadi [8].

D.N.Uznadze xulq-atvor motivlari muammosini inson bilan bog‘lab tushuntiradi va sub'ekt faolligining manbai, deb baholaydi. Uning fikriga ko‘ra, motivatsiya irodaviy aktga olib keluvchi bosqich hisoblanadi. D.N.Uznadze tomonidan ehtiyojni o‘ziga xos tarzda tushuntirish holati, real xatti-harakatdagi motivning funktsiyalari va ularning ustanovka bilan munosabati masalasining qo‘yilishi motivatsiya nazariyasining boyishiga olib keldi. [9].

Taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn o‘zining "Umumiy psixologiya asoslari" [8] nomli asarida affiliatsiya motivi to‘g‘risida ilmiy-amaliy xususiyatli qonuniyatni ilgari suradi. S.L.Rubinshteyn affiliatsiya motivini, inson faoliyatining maqsadi va motivi munosabatidan turib uni tahlil qiladi. Olim shaxsning yo‘nalishi va motivi orasidagi uyg‘unlikni ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi.

A.N.Leontev o‘zining "Psixikaning rivojlanishi muammolari" kitobida, hayotiy omillar xatti-harakat (xulq) motiviga aylanishning psixologik mexanizmlari muammosini ilmiy jihatdan asoslab beradi. U: “Inson shaxsining shakllanishi o‘zining psixologik jihatdan namoyon bo‘lishini aynan motivatsion jabhasini rivojlanishida topadi”, degan xulosaga keladi. [6].

I.V.Kuznetsova o‘z izlanishlarida affiliatsiya motivini namoyon bo‘lishinini – muloqotdagi o‘zaro tushunish, simpatiya va rad etilishdan qo‘rqish tarzida belgilaydi. [7]

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, affiliatsiya motivi o‘z ichiga insonlar bilan muloqot o‘rnatishga ehtiyoj, guruh a'zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o‘zaro ta'sir doirasiga kirishish, yordam ko‘rsatish va qabul qilish kabi ehtiyojlarni qamrab oladi. Xorijiy psixologlar maktabi doirasida affiliatsiya motivi bevosita va bavosita yondashuvlar orqali o‘rganilgan bo‘lsada, mahalliy sharoitda sof pedagogik-psixologik tadqiqotlar bu borada hali olib borilmagan. Lekin ijtimoiy psixologiya va unga yaqin fanlar vakillari tomonidan biz tanlagan muammoning ayrim jihatlari qisman o‘rganilgan.

Demak, yuqoridagi tahlillar natijasiga tayanib, motiv muammosining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi bo‘yicha quyidagi umumiy xulosalarni keltirmoqchimiz:

1. Barcha ilmiy adabiyotlarda affiliatsiya motivi muammosiga umumiy yondashuv tendentsiyasi amalga oshirilgan bo‘lib, unda shaxsning ijtimoiy-psixologik tabiatidan kelib chiquvchi o‘ziga xos ilmiy mushohadalar tadqiq qilingan.

2. Umuman, affilatsiya motivi muammosini tahlil qilishda, xorijda, asosan, uning fenomenologik, genetik hamda regulyatsion jihatlari nuqtai nazardan yondashuvlar tadqiqi namoyon etilgan bo‘lsa, Rossiya hamda boshqa MDH mamlakatlarida esa motivning fiziologik jihatlari, shaxs ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq imkoniyatlari hamda uning faoliyatni rivojlantirishdagi tabiati nuqtai nazardan tadqiq qilish amaliyotini kuzatish mumkin.

3. Umumiy holatda barcha tadqiqotchilar fikri, ilmiy talqinlar va g‘oyalari motivning muayyan tarkibiy qismlarini, shaxslararo faoliyatdagi psixoanalitik, kognitiv va gumanistik yo‘nalishlarda namoyon etilishi alohida izohlashga qaratilganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar royxati.

1. Nemov R.S. Psixologiya. 1-kitob. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Vlados. – 432-b.
2. Tvorogova N.D. Talabalarda affiliatsiya motivatsiyasini o‘rganish. – 120-b.
3. Yurkovskaya S.S. O‘quv faoliyatida affiliatsiya motivatsiyasining ahamiyati. – 169-b.
4. Myasishchev V.N. Munosabatlar psixologiyasi. – 162-b.
5. Yakobson P.M. Inson xulq-atvori motivatsiyasining psixologik muammolari. – 137-b.
6. Leontyev A.N. Psixika rivojlanishi muammolari. – 391-b.
7. Kuznetsova I.V. Affiliatsiya motivatsiyasining namoyon bo‘lish xususiyatlari. – 200-b.
8. Шониязова И.М. Практические аспекты развития мотива афилации //Вестник интегративной психологии. – Ярославль, 2023. Выпуск № 29. – С. 406-441. ISBN 978-5-9527-02-16-5.
9. Shoniyazova I.M. O‘smirlarda affilatsiya motivining pedagogik-psixologik determenantlari. «Zamonaviy psixologik tadqiqotlar integratsiyasi». Respublika ilmiy-amaliy anjuman. – Buxoro, 2023. – B. 72–75.